

ABDULLA AVLONIY VA TEATR

Temirova Sarbinabonu**O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti****Farg'ona mintaqaviy filiali****Qo'g'irchoq teatr aktyorligi****3-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8055818>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan teatrimiz tarixiga ulkan hissa qo'shgan mashhur dramaturg Abdulla Avloniy haqida so'z yuritiladi. Uning tarixda teatr rivoji uchun qo'shgan ulkan hissalar va dastlabki spektakllar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: dramaturg, teatr, faoliyat, matbuot, truppa, taqriz, maxsus, san'at, millat, ijtimoiy, pyesa, tanqid, san'atkor.

Teatrimiz tarixida uning nufuzini oshirish uchun o'z hissasini qo'shgan dramaturglar talaygina de'ya olmaymiz. Biroq, ular kam sonli bo'lsada ular o'chmas iz qoldira olgan. O'zlaridan o'chmas asarlar qoldira olgan. Kam sonli dramaturglardan biri Abdulla Avloniy hisoblanadi. Quyida Abdulla Avloniy va teatr haqida so'z boradi.

Abdulla Avloniy tarjimai holidagi uning teatrchilik faoliyati alohida o'rin tutadi. Ushbu ayni ijodiy kuchga to'lgan pallalarida umrining bir qismini o'zbek teatriga bag'ishlanadi. Uning asoschilaridan, tamal toshini qo'yganlardan biri bo'lib qoldi. Ayni chog'da aktyor, rejissor, teatr munaqqidi, xormeyster kabi qator sohalar bilan ham shug'ullanganki, mazkur sanoqning o'zi sahna san'atining Avloniy hayotiy yo'lida naqadar muhim o'rin tutganidan dalolatdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkiston matbuoti sahifalarida Markaziy Rossiya, Arman, Ozarbayjon va Tatar teatr truppalari Toshkent, Samarqand, Qo'qon kabi shaharlarda bir necha bor gastrollar o'tkazganlar haqida xabarlar, taqriz va maxsus maqolalar uchraydi. Jumladan, "Turkiston viloyati gazeta"ning 1909-yil sonlaridan birida Toshkentdagi e'tiborli xonadonlardan bo'lmish general S.G.Enikeyev uyida uning rafiqasi Saodatxonim tashabbusi bilan tatar teatr havaskorlari ijrosida Aliasqar Kamolning "Birinchi teatr" nomli komediyasi o'ynalgani haqida xabar bosilgan. Bu yerda hozir bo'lgan yerlik musulmon tomoshabinlar qatorida Abdulla Avloniy ham bo'lgan. Mana shunday tomoshalar Abdulla Avloniyning sahna san'atiga qiziqishi va bu san'at turining millat ijtimoiy va madaniy ongini o'stirishdagi juda muhim rolini his etib, Turkistonda ham teatrchilik ishlarini boshlab yuborishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Abdulla Avloniyning dramaturgiya sohasidagi mashqlari 1914-1915 yillar sanasi bilan belgilanadi. Shu yillarda ushbu "Pinak", "Advokatlik osonmi?" nomli bir pardali komediyalari, "Biz va siz" nomli to'rt pardali fojiasini yozadi. "Advokatlik osonmi?" "Turkiston" truppassi tomonidan 1916-yil sentabrida Avloniy rejissorligida sahnalashtiriladi. Har ikki pyesa ham Turkiston hayotining chirkin, ko'ngilsiz tomonlarini fosh etishga, ma'rifatsizlikning millat uchun foje bir hol ekanini ko'rsatishga qaratilgan. Ikkala asarda ham bu g'oya kulgu orqali komik vaziyatda aks etadi. "Pinak"da Tursun ko'knori bilan Tolib qimorboz munosabatlari, suhbat va hatti-harakatlari asnosida Turkiston turmushidagi tuban maishiy hayot qoralansa, "Advokatlik osonmi?" komediyasida jaholat, ilmsizlik oshkora, hatto publistik yo'sinda ochiq tanqid qilinadi. Ovropada yetti yil o'qib, yurist bo'lib qaytgan Davronbek, yordam so'rab oldiga kelayotgan odamlarning nodonliklaridan iztirobga tushadi. Oddiy, jo'n bir tushunchalar, beparvolik, haq-huquqini, insonlik g'ururini tanimaslik - bari ilmsizlikdan, degan fikrga keladi.

Ammo Davronbekning o'zi ham so'z aytish bilan cheklanadi, xolos. Bu tuban ahvoldan qutulish, o'z dardlariga malham topish uchun biror harakat ham qilmaydi.

1916-yil ozarbayjonlik atoqli san'atkor Sidqiy Ruxillo boshchiligidagi teatr truppasi Toshkentga gastrollarga keladi. Avloniy Sidqiy Ruxillo bilan yaqindan tanishib, uni "Turon" truppasi bilan hamkorlikka da'vat qiladi. Natijada "Turon" truppasi Turkiston milliy teatr tarixida birinchi bo'lib "Layli va Majnun", "Asli va Karam" kabi musiqali spektakllarini sahnalashtiradi. Avloniy Sidqiy Ruxillo bilan birga "Layli va Majnun" spektaklida yaqindan qatnashib, Majnunning otasi Malu rolini ijro etadi va ayni paytda spektaklga xormeysterlik ham qiladi.

1917-yil fevral inqilobidan keyin Avloniy ijtimoiy-siyosiy va matbuotchilik faoliyatiga jalb etilib, truppadan ketishga majbur bo'ladi. Shu kezlar davr taqozosi bilan "Turkiston" truppasining ham faoliyati vaqtincha to'xtagan edi. Biroq bunga qaramay, Avloniyning teatrga muhabbati so'ngan emas. U teatr uchun yana "Portugaliya inqilobi", "Ikki sevgi" kabi pyesalar yozadi.

Avloniy arxivida uning 1922-1924-yillar orasida O'lka o'zbek yerlar bilim yurti va o'qituvchilik qilganligiga oid hujjatlar bor. "Portugaliya inqilobi" asari birinchi marta ana shu bilim yurtlar talabalari tomonidan 1924-yili 16-oktabrda "Kolizey" teatri binosida o'ynalgan. Spektakl tashabbuskori ham, tashkilotchisi ham Avloniy bo'lgani aniq. Demak, Avloniy 1920-yillarda ham teatr ishlari bilan yaqindan shug'ullangan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Avloniy hayotining so'nggi kunlarigacha teatr san'atiga qiziqish va intilishini saqlab qoldi.

References:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Ziyouz.com sayti
4. Qomus.info sayti
5. Saviya.uz sayti
6. Shosh.uz sayti